

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11500962>

MAKTABGACHA KATTA YOSHDAGI BOLALARNING O‘YIN KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Ramozonova Bahoroy Sadriddinovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti “Maktabgacha ta’lim metodikasi” kafedrasida o‘qituvchisi

Karimbayeva Maftuna Ravshanbek qizi

Maktabgacha ta’lim yo‘nalishi II bosqich talabasi

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada maktabgacha katta yoshdagi bolalarning o‘yin kompetensiyalarini rivojlantirishning o‘ziga xos xususiyatlari hamda o‘yin faoliyatini tashkil etishning usullari yoritilgan.*

***Kalit so‘zlar:** tarbiyachi, o‘yin faoliyati, o‘yin kompetensiyasi, o‘yin usullari.*

***Аннотация.** В данной статье описаны особенности развития игровых компетенций детей старшего дошкольного возраста и методы организации игровой деятельности.*

***Abstract.** This article describes the specific features of the development of game competences of older children of preschool age and the methods of organizing game activities.*

Maktabgacha ta’lim tashkilotida tarbiyachi pedagog bolalarning o‘yin kompetensiyalarini rivojlantirishda asosiy vazifasi bolalarda ijobiy kayfiyatni shakllantirish, o‘yin jarayonida oqilona harakat rejimini tashkil etish bolalarni charchog‘ini turli aktiv faoliyat va dam olish bilan bartaraf etish muhim ahamiyatga ega.

Maktabgacha ta’lim tashkilotida katta guruhlarda o‘yin kompetensiyalarini rivojlantirishda turli mashqlardan ham foydalanish maqsadga muvofiq. Masalan: katta guruh bolalarining harakatlari aniq va tezkor, ularni boshqarishda tarbiyachi anchagina qiyinchilikka duch keladi. Bolalarni majburlab o‘yin Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachi oldiga bolalarga qoidalarini tushuntirilmaydi hamda

guruhdagi sho‘x va harakati tez bolalarni o‘yin jarayonida boshqarishga qiynaladi. Bundan tashqari tarbiyachi pedagog o‘yinni quyidagi usullarda boshqaradi:

1. Bevosita–bolalar o‘yiniga bevosita kattalar aralashuvini o‘z ichiga oladi. Bu o‘yinda rolli ishtirok etishida, bolalar til biriktirishda qatnashishida, tushuntirishda, yordam ko‘rsatishda, o‘yin davomida maslahat berishida yoki o‘yinning yangi mavzusini taklif etishida, ishtirok etishida namoyon bo‘lishi mumkin.
2. Bilvosita–katta maktabgacha yosh davridagi bolalar bilan ishlashida, ayniqsa samara beradi. tarbiyachi pedagog bolalar bilan o‘yin jarayonida o‘z fikrini maslahat tarzda namoyon qiladi va bunda qatiiy bo‘ysunish kerakligini talab etmaydi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarning o‘yin kompetensiyalarini rivojlantirishdagi murakkablik o‘yinni boshqarish vazifalari quyidagilar bilan to‘ldiriladi:

- bolalarni turli rollarni ijro etishga undash;
- bolalar rol ijro etganda turli hissiy ifodali rol harakatlarini bajarishlariga zamin yaratish;
- rol o‘ynash harakatlarni roldagi iboralarni aytilgan holda bajarish ko‘nikmalarini rivojlantishga ko‘maklashish.

Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarning o‘yin kompetensiyalarini rivojlantirishda tarbiyachi bolalarga muayyan o‘yin harakatlarini ataylab o‘rgatishidan ko‘ra bolalar o‘zlari o‘yinga qanday rolli o‘yin harakatlarini kiritishni o‘ylab topishlari muhim. Bu esa o‘yinning chinakamiga ijodiy ekanligini asoslab ko‘rsatadi. Bundan tashqari tarbiyalanuvchilarning rolli harakatlari ifodali bo‘lishi kerak. Bu esa karakterli amallar, imo-ishoralar, yuz ifodalari orqali ta’minlanadi. Masalan; tulki rolda bir bola tulkinging ayyorligini va boshqa bir bola bo‘rining ochko‘z va jahldorligini ko‘rdatadi. Bunda ikkalasi ham salbiy rolni o‘ynaydi, ammo ularning ifoda vositalari har xil bo‘ladi.

Bolalar uchun o‘yin qiziqarli, mazmunli bo‘lishi uchun tarbiyachi o‘yin qoidalari bilan yaqindan tanish bo‘lishi va bolalarni ham tanishtirib borishi kerak. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida bolalarni o‘yinga jalb qilish vaqtlarini qiziqarli o‘tkazish bilan birga, ularni o‘yin kompetensiyasini rivojlantirish uchun balki shu orqali ularni maktabga tayyorlashga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturi /takomillashtirilgan ikkinchi nashr/ Toshkent-2022-yil
2. F.R.Qodirova. Sh.Po‘latova, N.Kayumova, M, A‘zamova “Maktabgachapedagogika” Tafakkur nashri Toshkent-2019
3. Maxmudova, D., & Bahoroy, R. (2023). TECHNOLOGIES OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR PROFESSIONAL ACTIVITY ON THE BASE OF A COMPETENT APPROACH. *Modern Science and Research*, 2(10), 118-122.
4. Ramazonova, B. S., & Xo‘shmurod qizi Xolto‘rayeva, S. (2023). MALAKAVIY O‘QUV AMALIYOT JARAYONIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINING KONSEPTUAL ASOSLARI. *GOLDEN BRAIN*, 1(32), 181-184.
5. Sadriddinovna, B. R. (2024). MALAKAVIY O‘QUV AMALIYOT JARAYONIDA BO‘LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA OILA VA MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTI HAMKORLIGI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 17(4), 246-249.
6. Sadriddinovna, R. B. (2022). TECHNOLOGIES FOR INCREASING OF STUDENTS’LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. *Confrencea*, 6(6), 226-227.
7. Ramazonova, B. S. (2024). MAKTABGACHA TA‘LIM TASHKILOTLARIDA BOLALARNING O‘YIN KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *GOLDEN BRAIN*, 2(11), 4-7.
8. Sadriddinovna, R. B. (2022). FUNDAMENTALS OF DEVELOPMENT OF STUDENTS’LEARNING COMPETENCIES IN THE COURSE OF PEDAGOGICAL PRACTICE. *Thematics Journal of Education*, 7(4).